

TARIXIY QIYOSIY TILSHUNOSLIKDA TADQIQOT METODLARNING O'RNI

To'rayeva Manzura Ro'zimurod qizi

O'zbekiston Jahon tillari universiteti 3 bosqich talabasi

e-mailTorayevamanzura59@.com

Annotatsiya: Bu maqolani yozishdan asosiy maqsadim, lingvistika va sotsiolingvistika uning oldidagi dolzarb muammolarni hal qilishda amaliy va nazariy ko'nikmalarga ega bo'lishdir. Tilshunoslikdagi bu kabi dolzarb muammolarning kelib chiqish sabablarini o'rganish ham maqsad qilib qo'yilgan. Buning uchun qadimgi ajdodlarimiz va ularning ishlarini davom ettirish va yuqori, sifatli natijalarga erishish ham ko'zda tutilgan.

Kalit so'z: lingvistika, tilshunoslik, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, qarindosh tillar, Hind-yevropa tillari, etimologiya, grammatika, sanskrit, chog'ishtirma, morfologiya, fonologiya.

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik tavsifiy yoki sinxronik tilshunoslik, me'yoriy va umumiy tilshunoslikka qarshi turib, ularni inkor etadi; shu bilan birga, u bir qancha masalalarda tavsifiy tilshunoslik bilan ham, umumiy tilshunoslik bilan ham o'zaro aloqada, bog'liqliqda bo'ladi. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikda qo'llanuvchi qiyosiy tarixiy metodning asosiy tadqiqot usullari quyidagilardir: 1) tashqi (qiyosiy) rekonstruksiya (tor ma'nodagi qiyosiy-tarixiy metod) — qarindosh tillardagi genetik jihatdan teng, o'xshash so'z va morfemalarni qidirib topish va bobo tildagi izchil tovush o'zgarishlarining qarindosh tillardagi natijalarini aniqlash; bobo tilning taxminiy-faraziy modelini yaratish va keyinchalik undan kelib chiqqan avlod tillarning aniq morfemalarini tiklash qoidalarini tuzish; taqqoslanayotgan tillar o'rtasidagi mosliklar tizimini (fonetika, morfologiya, sintaksis, leksika, frazeologiyada) aniqlash va shu asosda tillarning qarindoshligini belgilash va b.; 2) ichki rekonstruksiya — ayrim olingan bir til tizimida ushbu til tarixining ancha ilk bosqichlarida ba'zi bir elementlarning mavjud bo'lganligi haqida aniq guvohlik beruvchi hodisalar va o'zaro munosabatlarni aniqlash; ayrim bir tildagi eng qadimiy shakllar bilan eng yangi shakllarni o'zaro taqqoslash; 3) o'zlashma (rekonstruksiya qilinayotgan tillarga o'zlashgan yoki shu tillardan boshqa tillarga o'zlashtirilgan) so'zlar tahlilidan ma'lumotlar chiqarib olish; 4) toponimika materiallaridan ma'lumotlar chiqarib olish va boshqalar Amalga oshirilgan rekonstruksiyalar til tizimining barcha tomonlarini: fonologiya, morfonologiya, morfologiya, leksika, qisman sintaksisni qamrab oladi. Biroq ushbu rekonstruksiyalarni tarixan aniq bir bobo til bilan bevosita tenglashtirib bo'lmaydi, ular tarixiy haqiqat bo'lmish bobo til haqidagi mavjud ma'lumotlarni modellashtiradi, xolos; ushbu ma'lumotlar ba'zi obyektiv sabablarga ko'ra barcha avlod tillarda yo'qolib ketgan morfemalar hamda fonemaviy ziddiyatlarni aniq rekonstruksiya qilish imkoniyati yo'qligidan, muqarrar ravishda to'liq, mukammal bo'la olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Abdurahmonov X, Mahmudov N. So'z estetikasi. Toahkent, 1981.2.

2. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat 2007
3. Mengliyev B., Sayfullayeva R., Mahmudova N., Suvonova X. Ona tili ta'limining 4. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. -T. :Sharq, 2002.
4. dolzarb muammolari // Til va adabiyot ta'limi. 2008 y. № 9.
5. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. - Jizzax: Sangzor, 2006 - 91b.
6. Safarov Sh. Pragmalingvistika. -Toshkent: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi", 2008.- B.245.
7. Safarov Sh. Toirova G. Nutqning etnosotsiopragmatik tahlili asoslari. Samarqand-2007.